

XUDOYOROV Anvar Aidjonovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrası

dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi

anvarxudoyorov111@gmail.com

JAHON TOVAR BOZORLARIDA ENERGIYA RESURSLARIGA BO'LGAN TALABNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI

ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ СПРОСА НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ НА МИРОВЫХ ТОВАРНЫХ РЫНКАХ

TRENDS IN DEMAND FOR ENERGY RESOURCES IN THE WORLD COMMODITY MARKETS

Annotatsiya: maqolada XX asrning 70-yillaridan hozirgi davrga qadar jahon tovarlar bozorlari, xususan energiya bozoridagi talabning o'zgarish tendensiyalari, unga ta'sir etuvchi omillar va kelgusida kutilayotgan o'zgarishlar tahlil qilinib, ularning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini kamaytirish borasida jahon tajribasiga asoslangan holda tavsiya va takliflar ishlab chiqildi. Mazkur takliflarni qo'llash kelgusida mamlakat energiya xavfsizligini mustahkamlash va risklarni boshqarishda yordam beradi.

Kalit so'zlar: jahon tovarlar bozorlari, energiya xavfsizligi, investitsiya, diversifikatsiya, modernizatsiya, yalpi ichki mahsulot (YaIM), risklarni boshqarish.

Аннотация: в статье анализируются изменяющиеся тенденции спроса на мировых товарных рынках, особенно рынке энергоресурсов, с 70-х годов XX века по настоящее время, факторы, влияющие на него, и ожидаемые изменения в будущем, разработаны рекомендации и предложения по снижению их влияние на экономику Узбекистана, исходя из мирового опыта. Применение этих предложений поможет укрепить энергетическую безопасность страны и управлять рисками в будущем.

Ключевые слова: мировые товарные рынки, энергетическая безопасность, инвестиция, диверсификация, модернизация, валовой внутренний продукт (ВВП), управление рисками.

Annotation: the article analyzes the changing

trends in demand in world commodity markets, especially the energy market, from the 1970s of the 20 th century to the present, the factors influencing it, and the expected changes in the future, developed recommendations and proposals in reducing their impact on the economy of Uzbekistan based on world experience. These proposals will help strengthen the country's energy security and manage risks in the future.

Keywords: world commodity markets, energy security, investment, diversification, modernization, gross domestic product (GDP), risk management.

KIRISH

Hozirgi kunga kelib dunyoda global o'zgarishlar sharoitida yangi davr muhitiga moslashish jarayonlari sodir bo'lmoqda. Ulardan e'tibor qaratishimiz eng zarur bo'lgan jihatlari – jahon tovar bozorlaridagi o'zgarishlar, xususan energiya bozoridagi talabning muntazam ravishda o'sib borishi, narxlarning o'zgarish tendensiyalari va xalqaro maydondagi vaziyatning qarorlar qabul qilishdagi ta'siri hisoblanadi.


Jahon energiya bozoridagi nobarqaror vaziyatdan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot Strategiyasi III ustuvor yo'nalishning (Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash) 22-maqsadida “Energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, sohaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish” hamda 24-maqsadida “Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish”[1] belgilangan.

Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi, Ukrainadagi urush va qazib olinadigan yoqilg'idan qayta tiklanadigan energiya tovarlariga o'tish sharoitida tovar bozorlarini to'g'ri prognozlash har qachongidan ham muhimroqdir. Bu esa tovar bozorlariga ta'sir etuvchi omillarning keng doirasini har tomonlama va o'z vaqtida tahlil qilib borish, uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ehtimoliy salbiy oqibatlarini oldini olish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Albatta, jahon tovar bozorlaridagi rivojlanishlar global iqtisodiyotga o'z ta'sirini o'tkazadi va shubhasiz, jahon iqtisodiyotidagi

har qanday o'zgarishlar ham tovar bozorlariga ta'sir etmay qolmaydi. Jahon banki mutaxassisleri tomonidan chop etilgan 2020 yil yakunlariga bag'ishlangan tahliliy to'plamga ko'ra, XX asrning 70-yillaridan keyin jahon tovar bozorlaridagi talabning o'sishi jahon yalpi ichki mahsuloti (YaIM) va aholi sonining ortib borishi bilan uzviy bog'liq ekanligi tushuntirilgan (1-rasm).




1-rasm. 1970-2020 yillarda jahon YaIM, aholisi va tovar bozorlaridagi o'zgarishlar, foizda (Manba: Jahon bankining 2022 yildagi "Commodity Markets: Evolution, Challenges, and Policies" nomli to'plami asosida tayyorlandi.)[2].

Jumladan, 1970-2020 yillar davomida jahondagi metalga bo'lgan talab YaIM bilan deyarli bir xil darajada o'sgan bo'lsa, shunday bog'liqlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari iste'moli va aholi sonining ko'payishi ko'rsatkichlarini solishtirganda ham kuzatiladi. Jahondagi energiya mahsulotlari iste'moli esa YaIM va aholining ortib borishiga nisbatan muvozanatli darajada ko'paygan. Shuningdek, jahon tovar bozorlaridagi ulkan o'sishlarga texnologik rivojlanish va yangi xom ashyo zahiralarning aniqlanishi ham sezilarli turtki bergan.

Jahon energiya iste'moliga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kunda uchta asosiy qazib olinadigan yoqilg'i - neft, ko'mir va tabiiy gaz - jami energiya iste'molining 83 foizini tashkil qiladi, bu ko'rsatkich 1970 yildagi 94 foiz bo'lgan. Neft global qazilma yoqilg'i iste'molining taxminan uchdan ikki qismini va global energiya iste'molining 40 foizini tashkil etadi. Neftning katta ko'lamda iste'mol qilinishining sababini uning havo va dengiz transporti uchun asosiy manba ekanligi, tayyor zaxiralarning mavjudligi, ishlab chiqarishning

arzonligini va tashishning qulayligi bilan ta'riflash mumkin. Muqobil energiya ishlab chiqarishda esa ko'mir ushbu uchta yoqilg'ining eng arzoni bo'lib, uning ulkan zaxiralari 140 yilga yetishi taxmin qilinadi. Hozirgi kunda neftning 60 yilga va tabiiy gazning 50 yilga yetadigan zaxiralari aniqlangan.



2-rasm. Jahonda energiya resurslarining sohalar kesimida iste'moli hajmi, foizda (Manba: Jahon bankining 2022 yildagi "Commodity Markets: Evolution, Challenges, and Policies" nomli to'plami asosida tayyorlandi.)[3].

So'nggi bir asrda yangi yoqilg'i manbalarining paydo bo'lishi bilan energiya bozorlarining tuzilishi sezilarli darajada o'zgardi. Neft hajmi bo'yicha energiya tovarlari orasida eng yirigi hisoblanadi. U asosan transport uchun ishlatiladi. Tabiiy gaz va ko'mir elektr energiyasi ishlab chiqarish, isitish (gaz) va metal eritish (ko'mir) kabi sanoat maqsadlarida foydalaniladi.

Neft yoqilg'isining taxminan uchdan ikki qismi transport uchun, qolgani asosan neft-kimyo sanoatida sarflanadi. Hozirgi vaqtda transportda neftning o'rnini bosuvchi vositalar yetarli emas. Aksincha, tabiiy gaz va ko'mirdan foydalanish asosan elektr energiyasi ishlab chiqarishga to'g'ri kelib, ular iste'molining mos ravishda 40 va 60 foizini tashkil qiladi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ko'plab muqobil yoqilg'idan foydalanish mumkin, ammo bu moslashuvchanlikka uzoq vaqt ketadi. Ko'mir va tabiiy gazni muqobil energiyaga almashtirish ancha murakkab, chunki u shunday ishlab chiqarish quvvatlarini qayta jihozlash yoki yangisini qurishni talab qiladi. Yadro va qayta tiklanadigan energiya ham elektr energiyasini ishlab chiqarish o'rnini bosishi mumkin.

Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish,

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, resurs ko'p ishlatadigan iqtisodiyotdan taraqqiyotning innovatsion modeliga o'tish hisobga olingan holda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash ko'p jihatdan XXI asrda har qanday davlatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi [4].

Shunday sharoitda O'zbekiston iqtisodiyotining yildan-yilga o'sib borishi, aholi sonining ko'payishi, texnologik o'zgarishlar mamlakatimiz energiya xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rishni taqazo etadi. O'zbekiston iqtisodiyotini kelgusida yetarli energiya manbalari bilan ta'minlash maqsadida mavjud energetika tarmoqlarini modernizatsiya qilish va muqobil qayta tiklanuvchi energiya resurslariga o'tishni bosqichma-bosqich amalga oshirish, ushbu sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'lamini kengaytirish zarur bo'ladi.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlari tomonidan investitsiyalar oqimining rivojlanayotgan mamlakatlarda energiya intensivligiga (energiya iste'moli/YaIM) ta'siri o'rganilganda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining 1 foizga ortishi energiya intensivligining o'rtacha 0,24 birlikka o'sishiga olib kelishi va texnologik rivojlanishning 1 birlikka yaxshilanishi esa energiya intensivligining 0,045 birlikka kamayishiga sabab bo'lishi ko'rsatilgan [5].

XULOSA

Rivojlanayotgan mamlakatlarga jalb qilinadigan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi ham asosan samarali ishlab chiqarishning rivojlanishi, yuqori texnologiyalarning joriy etilishi va ekologiyaga yetkaziladigan zararining kamayishi uchun xizmat qilishi kerak.

Jahon energiya bozoridagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan risklardan himoyalash uchun mamlakatimizda quyidagi tuzilmaviy islohotlarni takomillashtirish lozim bo'ladi:

- **Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash.** Kelajakda qayta tiklanuvchi muqobil energiya resurslari qazilma yoqilg'ining o'rnini egallashini inobatga olib, energiya tovarlarini eksport va import qiluvchi mamlakatlar tomonidan iqtisodiyotning boshqa sektorlarini ham rivojlantirish va buning natijasida kelgusidagi xavf risklarini

minimallashtirish mumkin bo'ladi.

- **Jamg'armalarni diversifikatsiyalash.** Qazilma energiya resurslariga bo'lgan talabning pasayishi natijasida uning eksportchilari tomonidan kelajakda olinadigan daromadlarning qisqarishi hozirda "og'ir kun" uchun jamg'arib qo'yiladigan mablag'lar hisobidan qoplanish imkoniyati mavjud.

- **Energiya resurslari xavfsizligini ta'minlash.** Muqobil energiyaga o'tish jarayonlari boshlanganligi sababli, kelgusida metal mahsulotlari uchun talabning keskin oshishi kuzatiladi. Bu esa qayta tiklanuvchi energiya mahsulotlarining yaratilishi uchun foydalaniladigan metal mahsulotlari ishlab chiqarishdagi mavjud to'siq va qiyinchiliklarni hozirning o'zida zudlik bilan bartaraf etish zaruratini tug'diradi.

Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish orqali O'zbekiston iqtisodiyotini kelajakda zarur energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash, ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohalari barqaror rivojlanishi uchun zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.
2. Jahon bankining 2022 yildagi "Commodity Markets: Evolution, Challenges, and Policies" nomli to'plami.
3. Jahon bankining 2022 yildagi "Commodity Markets: Evolution, Challenges, and Policies" nomli to'plami.
4. Исаджанов А. (2020). «Зеленая экономика»: особенности и факторы развития. Экономика И Образование, 1(1), 12–18. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4204.
5. Xudoyqulov A. (2023). To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar energiya intensivligiga qanday ta'sir ko'rsatadi? <https://yuz.uz/news/togridan-togri-xorijiy-investitsiyalar-energiya-intensivligiga-qanday-tasir-korsatadi>.